

## **“YURIDIK TERMINLARNI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI”**

**Xanimqulova Durdona Alisher qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yuridik terminlarning turlari, ularni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida duch kelishimiz mumkin bo‘lgan muammolar bir qancha misollar bilan birgalikda qisqacha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** termin, yuridik terminologiya, sistemaviylik, ichki yaxlitlik, turg‘unlik, advokat, strategik munosabatlar.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlarning soni ko‘payib borayotgani yuridik terminologiyani yanada chuqurroq o‘rganishni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlarda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va strategik munosabatlarni o‘rnatishda yuridik terminlarning muhim o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytda lug‘at tarkibining asosini turli terminologik tizimlarsiz tasavvur etish qiyin. Tarjimashunoslik tarixiga nazar tashlar ekanmiz o‘tgan asrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan davr oralig‘ida olib borilgan ilmiy ishlarda mutaxassislar tajribasining leksik, grammatik, stilistik va boshqa bir qancha dolzarb muammolari to‘g‘risida fikr yuritishgan. Terminlarni o‘rganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotgan so‘zlarni o‘z ona tilimizga aynan mos tushadigan so‘zlarga almashtirish va tarjima qilishdir. Keling avvalo, termin so‘zining ma‘nosi haqida gaplashamiz.

Termin lotincha “terminus”– chek , chegara, chegara belgisi kabi ma‘nolariga ega bo‘lib, fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasidir. A.Reformatskiy terminga quyidagicha ta‘rif beradi: “Terminlar –bu maxsus so‘zlardir”. Terminga qo‘yiladigan asosiy me‘yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S. Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, konkretga bog‘liq emaslik, qisqalik, bir ma‘nolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tadbiiq etilganlik darajasi va boshqalar. Vinokurning fikricha: har bir terminologik sohada boshqa terminologiya bilan yoxud umumadabiy so‘zlar bilan bir xil bo‘lgan terminlar mavjud. Masalan: abordage –sudlarning to‘qnashuvi

(yuridik termin sifatida); abordage –abordaj, kemaga chiqish (dengizchilar termini). Mavzudan kelib chiqqan holda yuridik terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sof yuridik terminlar;
2. Umumadabiy soʻzlar bilan yoki boshqa terminologik sohadagi terminlar;
3. Umumadabiy soʻzlar;
4. Ikki tilli lugʻatda keltirilgan, lekin yuridik termin sifatida belgi qoʻyilmagan va yuridik lugʻatlarga kiritilgan soʻzlar

Yuridik terminologiya esa (yuridik terminlar yigʻindisi), har bir tilda spesifik (oʻzgacha) dir. Unda yuridik til asos olgan va unda huquqning predmeti sohasidagi maʼlumotlar toʻplanib boradi. Yuridik terminlarga quyidagi xususiyatlar xos:

1. Keng tarqalganlik;
2. Sistemaviylik;
3. Ichki yaxlitlik
4. Oʻzaro uzviylik;
5. Turgʻunlik.

Yuridik terminlarni tasniflash ularni sof yuridik terminlarga va umumisteʼmol tildagi terminlarga boʻlinishiga asoslanadi. Bu tasnif ularni oʻz navbatida ikkiga boʻladi: sof yuridik terminlar va ikki taraflama terminlar, yaʼni, ham yuridik termin, ham umumadabiy soʻz. Quyida Amerikada mavjud advokat ofisidagi holatni koʻrib chiqamiz. Jones oʻziga aloqador boʻlgan hodisa haqida rasmiy (huquqiy) jarayonga mos holda advokat tomonidan chaqirilib, guvohlik beradigan boʻldi.

A : Mrs, Jones, is your appearance this morning pursuant to a deposition notice which I sent your attorney?

B : No, this is how I dress when I go to work.

A : Janob Jones, bugun ertalabgi sizning koʻrinishingiz advokatingizga yuborgan xabarnomaga toʻgʻri keladi, shundaymi?

B: Yoʻq, bu men ishga boradigan vaqtimdagi qiyofam. Bu gapda appearance ( koʻrinish,qiyofa) soʻzi yuridik termin sifatida kelib, Oliy Sud vaziyatidan kelib chiqqan holda esa “ishtirok etish”, “sudga kelish” kabi “chiqish” maʼnosida keladi,tashqi koʻrinish maʼnosida emas. Janob Jones bu iboraga tushunmay

advokatura idorasida bo'lishi haqidagi savolni o'zining kiyimboshi haqida so'rallyabdi deb tushunadi. G'arbiy Yevropadagi yuridik terminlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilganda noto'g'ri tushunchalarni keltirib chiqaradigan yuridik terminlar mavjud. Yana bir yuridik termin natural person, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda tabiiy inson ma'nosiga ega, yuridik atama sifatida esa jismoniy shaxs ma'nosida keladi. Fruit so'zi ham bir qarashda meva ma'nosini bersada yuridik termin sifatida boshqa ma'nolarga ega. Jinoyatni fosh etishda topilgan "ashyoviy dalil" ma'nosiga ega. Fruit of the poisonous tree sinxron tarjimada zaharli daraxt mevasi deb tarjima qilinadi. Ammo yuridik jihatdan bu umuman boshqa ma'noga ega, ya'ni noqonuniy dalillar, qalloblik bilan qo'lga kiritilgan dalillar ma'nosiga ega. Yuz yil oldin Amerika Sudida sudiya injil kitobining "Yaxshi daraxtdan yaxshi meva olinadi, yomon daraxtdan esa foydasiz mevalardan boshqasi olinmaydi, mevalarni ko'rib ajratib, yomon daraxtning mevasi olovga tashlanadi" –degan qismini sitata qilib aytgan "qalloblik bilan yig'ilgan dalillar, sud zalida dalil sifatida ishlatilmaydi" gapi tarixda qolgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tarjimon tarjima qilish mobaynida so'zning aynan qaysi mano'da kelayotgani va vaziyatga mos tarjimasini bila olishi zarur. Terminlarning turli ma'nosi har bir tildagi so'z boyligi, aholining yashash tarzidan kelib chiqib ham turlicha bo'ladi. Masalan o'zbek tilidagi o'g'rilik jinoyatga oida termini ingliz tilida sodir etishining turi va sodir etilgan joylardan kelib chiqib bir qator muqobillarga ega, robbery, shoplifting, embezzlement, fraud, mugging va bu so'zlarning umumiy ma'nosini beruvchi yuridik termin "theft" so'zidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilida yurisprudensiyaga oid terminlar umumadabiy tilda ham qo'llanilsada, yuridik sohada ular chuqurroq ma'noga ega bo'ladi. Shuningdek, so'zlashuv uslubida qo'llanilmaydigan sof yuridik so'zlar ham bo'lib ulardan foydalanayotganda ehtiyotkorlik zarur va albatta yuridik terminlar lug'atidan foydalangan ma'qul. Yuqoridagi berilgan ma'lumotlardan keyin shubhasiz ayta olamizki, bir tildan ikkinchi tilga yuridik so'zlarni yoki terminlarni tarjima qilishda nutq so'zlayotgan so'zlovchining maqsadi va nutq kechayotgan jarayonga ham e'tibor bermog'imiz lozim.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Kobrin B.N., Golovin R.Y. Linguistic foundation of the doctrine of terms.-M. Higher.sh.k.,1987.- P.104
2. Khizhnyak S.P. Legal terminology: Formation and composition .-Saratov,1997. P.137

3. В.А Татаринов, Теория терминоведения. Теория термина: история и современное состояние, Москва, 1996
4. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961.– с. 29
5. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning chog‘ishtirma tahlili Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna Achievements and Challenges of Teaching Methods of Applied Sciences-2022 ISSN: 2181-2594
6. <https://dictionary.findlaw.com>
7. [www.justia.com](http://www.justia.com)
8. Inscience.uz